


2021- yilning yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2 968,6
mlrd. soʻm


108,1 %

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatida jami **2 968,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan **108,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʼyicha boʼlinadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 642 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlaringin o'tgan yilga nisbatan **108,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **50,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **106,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin **104,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **42,9 %**) o'sishidir.



Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.09.2020- yil	01.09.2021- yil	
	Navoiy viloyati	1 539	1 642	106,7
	Navoiy sh.	420	477	113,6
	Zarafshon sh.	124	134	108,1
	tumanlar:			
	Karmana	254	273	107,5
	Konimex	39	36	92,3
	Qiziltepa	227	239	105,3
	Navbahor	184	189	102,7
	Nurota	98	107	109,2
	Tomdi	40	40	100,0
	Uchquduq	55	51	92,7
	Xatirchi	98	94	95,9


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (29,1 %), Karmana (16,6 %) va Qiziltepa (14,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **588,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **86,4** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **19,9** % ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar- avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **53,5 %** ni), Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,7 %** ni), va Navoiy shahriga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,3 %** ni), to'g'ri keldi.




Qurilish ishlaring umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,3 %** ga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,7** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **115,8 %** ni tashkil etgan holda **1 554,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,8 %** ni tashkil etdi yoki **826,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar- avgust oyiga nisbatan **114,4 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **451,9** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 516,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **15,2 %** va **84,8 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar- avgust oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	2 968,6	2 516,7	100,0	451,9	100,0
Navoiy sh.	798,5	717,2	28,6	81,4	18,0
Zarafshon sh.	592,6	222,1	8,8	370,5	82,0
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	287,4	287,4	11,4		
Konimex	27,1	27,1	1,1		
Qiziltepa	465,5	465,5	18,5		
Navbahor	262,6	262,6	10,4		
Nurota	209,9	209,9	8,3		
Tomdi	18,0	18,0	0,7		
Uchquduq	38,9	38,8	1,5		
Xatirchi	268,1	268,1	10,7		

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumi hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar- avgust oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi bino va inshootlarni
qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaring 76,9 % ni yoki
2 283,8 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi
ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy
obyektlarni yaratishga qaratilgan.

76,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **588,4** mlrd. so'mlik
ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlardagi ulushi
19,9 % ni tashkil etdi.

19,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha
yangi qurilish hisobidan **1 554,0** mlrd. so'm
yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning
yangi qurilish ishlardagi ulushi 52,3 % ni
tashkil etdi.

52,3 %

Qurilish ishlari hajmida norasmiy
sektor hissasi **826,2** mlrd. so'm
yoki ularning jamiga nisbatan
ulushi 27,8 % ni tashkil etdi.

27,8 %




**2021- yilning yanvar- avgust oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)
Navoiy viloyati	2 968,6	108,1	2 259,7
Navoiy sh.	798,5	109,4	596,6
Zarafshon sh.	592,6	101,4	481,3
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	287,4	111,9	226,0
Konimex	27,1	101,0	24,9
Qiziltepa	465,5	115,1	350,3
Navbahor	262,6	107,0	153,7
Nurota	209,9	109,7	126,5
Tomdi	18,0	104,3	11,3
Uchquduq	38,9	109,1	33,9
Xatirchi	268,1	105,3	255,3

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarinining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **22,0 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar- avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,7** punktga ko'payib, **73,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-avgust oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9** punktga kamayib, **4,1 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,6 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan **1,9 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **85,4 % (5,5 % ko'payish)** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan **1,1 %** ga kamaydi va **29,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **70,3 %** ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan **9,9 %** ga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar- avgust oylarida**



mld. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	2 968,6	2 283,8	411,9	272,9
Navoiy sh.	798,5	612,5	152,8	33,2
Zarafshon sh.	592,6	345,6	103,8	143,2
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	287,4	251,8	25,2	10,4
Konimex	27,1	19,4	4,5	3,2
Qiziltepa	465,5	403,0	49,8	12,6
Navbahor	262,6	209,6	29,2	23,7
Nurota	209,9	178,7	14,4	16,8
Tomdi	18,0	13,5	1,9	2,6
Uchquduq	38,9	18,9	12,0	8,1
Xatirchi	268,1	230,8	18,3	18,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari




Joriy yilning yanvar- avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiylajmida eng yuqori ulush Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 26,8 % ni yoki **612,5** mlrd. so'm), shuningdek, Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 17,6 % ni yoki **403,0** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 15,2 % ni yoki **345,6** mlrd. so'm) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmidan 37,1 % ni yoki **152,8** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 25,2 % ni yoki **103,8** mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 12,1 % ni yoki **49,8** mlrd. so'm) qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 52,4 % ni yoki **143,2** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 12,2 % ni yoki **33,2** mlrd. so'm), Navbahor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 8,7 % ni yoki **23,7** mlrd. so'm) qayd etildi.

2021- yilning yanvar- avgust oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari



Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo‘limi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73